

**"ZAIF ESHITUVCHILARGA TA'LIM BERISH: PEDAGOGIK
MASALALAR VA JAMIYATDAGI DOLZARB O'RNI"**

Ibragimova Durdonha Dilmurod qizi

Alfraganus Nodavlat Universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Utbasarova Umida

Alfraganus Nodavlat Universiteti pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada surdopedagogikaning asosiy masalalari, eshitishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning rivojlanishi va ta'lif olish jarayonlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maxsus pedagogik yondashuvlar, metodlar, ta'lif, tarbiya jarayonining xususiyatlari hamda ularning umumiyligi rivojlanishiga ta'siri muhokama qilingan. Maqola, ayniqsa, eshitish nuqsonlari bo'lgan bolalarga ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashda pedagogik va psixologik metodlarning muhimligini ko'rsatadi. Eshitish qobiliyati pasaygan bolalarga ta'lif berishda o'qitishning ilmiy-metodologik asoslari, innovatsion usullar, vizual materiallar va interaktiv o'qitishning samaradorligi taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: surdopedagogika, eshitish nuqsonlari, zaif eshtuvchilarga korreksion-pedagogik: yordam, maxsus ta'lif, nutq rivojlanishi vizual o'qitish.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются основные вопросы сурдопедагогики, процессы развития и обучения детей с нарушениями слуха. Обсуждаются специальные педагогические подходы, методы, особенности образовательного и воспитательного процесса, а также их влияние на общее развитие детей с нарушениями слуха. Статья подчеркивает важность педагогических и психологических методов в воспитании социально активных личностей среди детей с нарушениями слуха. Представлены научно-методологические основы обучения, инновационные методы, эффективность визуальных материалов и интерактивного обучения в образовании детей с нарушениями слуха.

Ключевые слова: сурдопедагогика, нарушения слуха, коррекционно-педагогическая помощь слабослышащим, специальное образование, развитие речи, визуальное обучение.

Abstract: This article provides detailed information on the main issues of surdopedagogy, the development and educational processes of children with hearing impairments. Special pedagogical approaches, methods, characteristics of the educational and upbringing process, and their impact on the overall development of children with hearing impairments are discussed. The article highlights the importance of pedagogical and psychological methods in educating socially active individuals among children with hearing impairments. The scientific and methodological

foundations of teaching, innovative methods, the effectiveness of visual materials, and interactive learning in the education of children with hearing impairments are presented.

Keywords: surdopedagogy, hearing impairments, correctional and pedagogical assistance to the hearing impaired, special education, speech development, visual learning.

Kirish: Surdopedagogika (lot. "surdus"-kar) maxsus pedagogika tarmog'i, eshitish qobiliyati buzilgan bolalar va katta kishilarning rivojlanishi, tarbiyalanishi, ta'lim olishi haqidagi fandir. Eshitish qobiliyati buzilgan ilk va mакtabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanish va ta'lim-tarbiya olish jarayonlari va muammolari-mакtabgacha surdopedagogika fanining predmeti hisoblanadi.

Maktabgacha davr eshitishda nuqsoni bo'lган bolaning rivojlanishida muqim ahamiyatga egadir, zero korreksion-pedagogik tadbirlarning barvaqt boshlanishi uning o'sishidagi nosozliklarini oldini olishga, shuningdek, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi ,bilimli shaxsni tarbiyalashga yordam beradi. (L.A.Golovchis). Psixolog va surdopedagog olimlar L.S.Vigotskiy, I.M.Solovyov,N.A.Rau,U.Fayzieva, F.Alimxodjaeva, F.qodirova,I.Kislisinalar eshitmaydigan bolalarni ijtimoiy tarbiyalash tizimida dastlabki nuqta deb maktabgacha tarbiyani e'tirof etadilar.

Maktabgacha surdopedagogikaning aloqida fan bo'lib ajralishi, eshitishda nuqsoni bo'lган bolalarning turli yosh bosqichlariga hos jismoniy, psixik va fiziologik xususiyatlarining mavjudligi, bolalar turmushini tashkil etish va qulay ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarni yaratishda bularni qisobga olish zarurligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha surdopedagogika fanining asosiy vazifalari eshitishda nuqsoni bo'lган bolalarga ta'lim berish vazifalari ularning rivojlanish imkoniyatlari, ilk maktabgacha davrdan boshlab korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy rivojlanishiga, birinchi navbatda esa nutqning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Maxsus o'qitilmagan maktabgacha tarbiya yoshdagi kar va zaif eshituvchi bola gapira olmaydi, o'zgalar nutqini tushunmaydi, muloqotda esa cheklangan miqdordagi imoshoralardan foydalanadi.

Kundalik turmushda, kattalarga tahlid qilib oddiy xatti-qarakat va faoliyat turlarini o'zlashtira oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradilar, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarni egallaydilar.

Maxsus yo'naltirilgan ta'lim berish uchun qulay shart-sharoit yaratilmagan holda, bolalarning sensor va intellektual rivojlanishi so'zli nutqdan xoli kechadi. Shunday qilib, eshitish qibiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishining buzilishi

oqibatida bolaning rivojlanishi to'xtamasa-da, ancha cheklanib qoladi. Demak, bu bolaning risoladagidek rivojlanishi uchun, me'yorda eshitadigan bolalardan ko'proq maxsus ta'lif-tarbiya sharoitlari zarur bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta'lif-tarbiya berilsa, uning umumiyligi rivojlanishidagi orqada qolishni oldini olish hamda ularning uyqun o'sishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Maktabgacha surdopedagogikaning asosiy vazifalari:

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash va ularga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatilishga ko'maklashish;

Ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash; Eshitish qobiliyatining buzilishini jismoniy, bilish, ijtimoiy, nutqiyligi rivojlanishiga, shaxsning shakllanishiga bo'lgan ta'sirini o'rganish;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga metodik yordamni tashkil etish;

Korreksion-tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish: ilk va maktabgacha yoshdagagi kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'lif tarbiya berish vazifalari, tamoyillari va metodlarini belgilash;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lif berishning turli shart-sharoitlarda: maxsus maktabgacha ta'lif muassasasi, maktab-internatlar qoshidagi guruhlar, umumiyligi yo'nalishdagi bolalar bog'chasi huzuridagi guruhlar, integrasiya ta'limi. belgilash, o'qituvchi-surdopedagog, tarbiyachi, umumta'lif muassasa pedagoglariniva ota-onalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik yordam berishning yangi shakllarini izlash;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni eshituvchi insonlar orasiga integrasiyalashuvi

(uyg'unlashuvi)ga yordam berish;

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarning matab, oila, maqalla, jamoa tashkilotlari bilan aloqasini mustaqkamlash.

Maktabgacha tarbiya muassasasi, oila, jamoat tashkilotlarining kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'lif-tarbiya berish borasidagi ijobiy tajribalarini o'rganish.

Nutq – murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtiroy etadi.

Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihat-

dan talaffuzga bog‘liq. Bola nutqining o‘sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish dara- jasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhim – o‘z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so‘zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi.

So‘z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan so‘zning o‘zaro aloqada bo‘lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi. Defektologlarning (T.A. Vlasova, R.M. Boskis, D.V. Neyman va boshqalarning) bergen ma’lumotlariga ko‘ra, eshitishida nuq- sonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo‘lganligiga va og‘ir-yengilligiga bog‘liq. Surdopedagogikada eshitishida nuqsonlari bor bolalar kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo‘lib qolgan bolalar guruhiba bo‘lib o‘rganiladi.

Tug‘ma hali tili chiqmagan go‘daklik davrida ikkala qulquning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiba kiritiladi. Zaif eshituvchilar uchun o‘qitish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar nafaqat samarali, balki ular uchun ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi. Zaif eshituvchilar ham oddiy odamlardek imkoniyatlarga ega va ulardan ham mashhur odamlar chiqishi mumkin. Quyida zaif eshituvchilar uchun qiziqarli va samarali metodlarni keltiraman, shuningdek, bu metodlarning ularga qanday imkoniyatlar yaratishini ham ko‘rsatib beraman.

Zaif Eshituvchilar uchun Qiziqarli Metodlar

Vizual materiallar va animatsiyalar Vizual o‘qitish usullari yordamida zaif eshituvchilar uchun materiallarni ko‘rgazmali tarzda taqdim etish muhim. Rasm va videolar yordamida bolalar mavzularni aniqroq tushunishadi. Masalan, animatsion videolar yordamida o‘qitilayotgan mavzuni yanada qiziqarli va tushunarli qilish mumkin. Imo-ishora nutqi va vizual tizimlar yordamida eshitish muammolarini yengish, eshitishning yetishmagan joylarini to‘ldirish uchun samarali bo‘ladi.

Interaktiv o‘qitish

Kompyuter va mobil ilovalar yordamida interaktiv o‘quv dasturlarini ishlatalish. Bu dasturlar bolalarni yanada faol ishtirok etishga, o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalardan samarali foydalanishga rag‘batlantiradi. O‘yinlar, musiqiy va vizual dasturlar orqali ularning qiziqishini oshirish mumkin. Bolalar shuningdek, xabar almashish uchun elektron vositalardan foydalanishni o‘rganadilar, bu esa ularning ijtimoiy muloqotini rivojlantiradi. Dastlabki o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish Zaif eshituvchilarga yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun maxsus metodlar ishlataladi.

Masalan, harflar va so‘zlarni ko‘rgazmali tarzda o‘rganish va bolalar bilan ular o‘rgatish uchun sevimli hikoya va ertaklar orqali mashqlar qilish. O‘zaro muloqotda foydalanish uchun vizual qo‘llanmalar va multimedialar yordamida bu jarayonni yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.

Tadqiqotlar va ijodiy faoliyat

Zaif eshituvchilarni ijodiy faoliyatlarga jalb qilish, masalan, rasm chizish, hikoya yozish, sahnalashtirish orqali ularni ijtimoiy va emotsiyal jihatdan rivojlantirish mumkin.

Bu usul bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib, ular o‘zini namoyon qilishga yordam beradi. Ularni teatr yoki musiqa kabi faoliyatlarga jalb qilish ham o‘ziga xos foyda beradi. Masalan, imoviy musiqiy ilovalar yordamida musiqani eshitish va ijro etish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Sosial integratsiya va guruh ishlari

Eshitish muammolariga duchor bo‘lgan bolalarni boshqa bolalar bilan birga ishslashga, ular bilan guruhdha o‘rganishga rag‘batlantirish juda muhim. Bu, nafaqat ta’lim jarayonini osonlashtiradi, balki ijtimoiy integratsiyani ham ta’minlaydi. Jamoaviy faoliyatlar, ijodiy loyihamalar va sport musobaqalarida qatnashish, ularning o‘zaro munosabatlarini va muloqot ko‘nikmalarini oshiradi.

“Zaif Eshituvchilar Ham Oddiy Odamlardek Bo’la Oladi”.

Zaif eshituvchilar ham boshqa bolalar kabi o‘z hayotida muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. O‘ziga xos imkoniyatlar yaratish va ta’limda to‘g‘ri yondashuvlar orqali ular jamiyatda faol qatnashishlari mumkin. Masalan:mashhur odamlar chiqishi mumkin:

Zaif eshituvchilardan bir nechta mashhur shaxslar chiqib, o‘z qobiliyatlarini isbotlashgan.

Masalan, Helen Keller va Ludwig van Beethoven kabi buyuk shaxslar o‘zlarining qiyinchiliklariga qaramay, dunyoga tanilgan va katta yutuqlarga erishganlar. Bu misollar zaif eshituvchilarni ilhomlantiradi va ularni o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishlatischga undaydi.

Ota-onalar va o‘qituvchilarga maslahatlar:

Ota-onalar bolalarini quvvatlashlari va ular bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatishlari kerak. Eshitish nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun oilaviy qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir. Bolalar yaxshi o‘qishlari, dunyo bilan bog‘lanishlari va o‘zlarini ifoda eta olishlari uchun o‘qituvchilar va ota-onalar ularni rag‘batlantirishi, ularning muvaffaqiyatlari uchun ijobiy muhit yaratishi kerak.

Yuqori malakali mutaxassislar yordamida o‘qitish:

Zaif eshituvchilarning rivojlanishiga yordam berish uchun mutaxassis pedagoglar va logopedlar tomonidan maxsus metodikalar va yondashuvlar qo‘llanilishi

muhimdir. Bu usullar nafaqat bolalar uchun samarali bo‘ladi, balki ular uchun motivatsiyani oshiradi va ularni muvaffaqiyatga erishishga ilhomlanadir.

Xulosa: Zaif eshituvchilarga qiziqarli va samarali o‘qitish metodlari nafaqat ta’lim jarayonini yengillashtiradi, balki ular uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Ta’lim jarayonida eng muhimmi, bu bolalarga o‘zlarini ko‘rsatish va jamiyatda to‘liq qatnashish imkoniyatlarini yaratishdir.

Zaif eshituvchilarni rag‘batlantirish va ularning ijtimoiy, emotsiyal va intellektual rivojlanishiga yordam berish, ulardan mashhur va muvaffaqiyatli shaxslar chiqishiga turtki bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vlasova T.A., Boskis R.M., Neyman D.V. (yil). Eshitish nuqsonlari bo‘lgan bolalar rivojlanishini o‘rganish.
2. Solovyov I.M. (yil). Pedagogik psixologiya: Eshitish nuqsonlari bo‘lgan bolalarning rivojlanishiga ta’sir.
3. Golovchis L.A. (yil). Maktabgacha tarbiya va surdopedagogika: bolalarning rivojlanish jarayonlari.
4. Yusupova P. (yil). Falsafa va pedagogika: Nutq va eshitish bo‘yicha metodlar.
5. Pavlov I.P. (yil). Refleksologiya: Eshitish va nutq rivojlanishining fiziologiyasi.
6. Fayzieva U. (yil). Maxsus ta’lim va korreksion yordam metodlari.